



NORMUROD NORQOBILOV HIKOYASIDA QAHRAMON XARAKTERISTIKASI

Ahmedova Sarvinoz

Qoraqalpoq davlat universiteti

2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7553192>

ARTICLE INFO

Received: 10th January 2023

Accepted: 19th January 2023

Online: 20th January 2023

KEY WORDS

Kompozitsion qurilish, adabiy xarakteristika, portret, muallif bayoni, diolog, monolog.

ABSTRACT

Mazkur maqolada, hozirgi o'zbek hikoyachiligining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Normurod Norqobilov ijodini, aniqrog'i uning "Yakkasuv" hikoyasining kompozitsiyasi, syujeti hamda qahramon xarakteristikasi bilan bog'liq masalalar yoritib beriladi.

Hikoyachiligimizning yorqin vakillaridan biri Normurod Norqobilovning asarlari uslubiy-kompozitsion jihatdan o'ziga xos bòlib, obraz yaratish, voqealarni tasvirlash, badiiy asar nuqtaiy nazardan xilma-xildir va kitobxonning hislarini jumbushga keltirishi bilan xarakterlidir. "Хакикий бадий асар укувчи ёхуд томошабиннинг хисларига таъсир этиши билан ёзма сузнинг хамма бошқа турларидан ажралиб туради. "Хисларга таъсир этувчи хакикий бадий асар" ижодкор дунёкараши, Фавкулудда салохияти, теран фикр ва туйгулар ҳосиласи бўлиш билан берга, воқеликни узига хос англаш ва бадий кашф этиш тарзи - услуги билан ҳам узвий богликдир. Зеро, услуб тарихий тушунча булиб, алоҳида ижодкорга йуналиш эса муайян ижодкорлар гуруҳига мансуб асосий ифода йўлидир. Ҳар бир асар маълум бир услуб ва йўналишда яратилар экан, у бадий тафаккурнинг ўтган ёхуд замонавий даври хусусиятлари билан боглик холда воқе бўлади. Бу эса услубий йуналишларда анъана ва янгича карашларин вужудга келтиради ва бадий ижоддаги давомийликни ифодалайди".[1.24-25- betlar]

Ushbu maqolamizda yozuvchining " Yakkasuv" hikoyasini talqin qilar ekanmiz, undagi kompozitsion qurilishi va syujeti e'tiborimizni tortdi.

"syujet asarning ichki, asosiy kompozitsion ko' rinishidir. Asardagi personajlararo aloqa - munosabatlardan kelib chiqadigan voqealar tizimiga syujet deymiz. Romandagi voqea hodisalar bo'lib o'tadigan joy va zamoni ta'minlaydigan, syujet voqealiklarini harakatlantiradigan, syujet yo'nalishlarini badiiy niyatga bog'laydi" [2.118-bet]

Hikoyada asar qahramonlari oz bo'lishiga qaramay, kitobxonga asar bosh g'oyasi to'la yetkazib berilgan.

"Agar bu gap o'tgan kuni aytilganida edi, yarim soatcha burun shaharga jo'nab ketgan Tirkash tog'asi bilan quyuq xayr-xo'shlashib, endigina kartoshga chopiqqa tushgan Mirza hadaha g'azab otiga mingan va uni beayov qamchilagancha, "kim ekan u zo'r", deya "na'ra" tortgan bo'lardi".[3]



Ko'rinadiki, Hikoya tugun bilan ya'niki, hikoyada keltirilgan Yakkasuv va Ayritomliklar o'rtasida tortishuvdan boshlanadi. Shunday ekan o'qiyotgan kitobxonda asarga nisbatan, "Qanday tortishuv edi?", "Bunga nima sabab bo'lgan?" kabi bir qancha savollar tug'ulishi tabiiy. Bu kabi savollarga kitobxon hikoyani o'qish davomida javob topadi va tugunning sabablari birma-bir ochib beriladi.

Adabiyotda " Badiiy xarakter - bu individual belgilarni ham o'z ichiga olgan holda ma'lum bir ijtimoiy sharoitda paydo bo'lgan".[4.5-6-betlar.]

Hikoyada qahramon xarakterining qirralari xilma-xil bo'lganidek, uning ruhiy olamini uchuvchi «<portret, monolog, dialog, tush, psixologik timsollar, peyzaj, galyutsinatsiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir». [5.32-bet]

"Yakkasuv " hikoyasida syujet bosh qahramonimiz Mirza hadaha xarakteristikasiga nazar tashlasak, g'urur va or-nomus tushunchalari uning uchun muhim ekanligini ko'ramiz. Ammo asar boshlanishida bunga o'xshamaydi. " Boylik odamning ko'zini ko'r qiladi" deganlaridek, qahramonimizning ham ko'zini ko'r qila yozdi. Qo'shni ovuldoshlar bilan tortishuvli vaziyatlarda ham e'tibor bermadi. Negaki, uning hayoli Tirkash tog'asi aytgan "Kamar" deb atalmish, qorong'i g'or qa'ridan topilgan sir-sinoat qiziqtirardi. Tirkash tog'si ham o'ziga hamroh qilib, jiyani Mirzani tanlagandi. Boshida bu sayohat Mirzaga yoqmaydi ammo tog'asini og'zidan "xazina" degan so'z aytilishi bilan u bajonidil rozi bo'ladi.

"...yaltiroq tugmachali qalin, qora daftariga allanimalarni qayd qilib yurgan tog'asi bu gal kelishida, to'satdan biron-bir kimsaning xayoliga kelmaydigan g'orga bormoqni ixtiyor etib, o'ziga ishonchli hamroh sifatida Mirzani tanladi. Biroq tog'aning bu istagi jiyaniga unchalik xush kelmadi, manglayi tirishib, ensasi qotdi. Shunda bu kabi suhbatlarda har qanday hazil-huzilni o'zidan o'ta yiroq tutadigan tog'a tizzasasi ustidagi qora daftarni ma'nodor chertib, ziyolilarga xos sokinlik bilan dedi: "Mendagi ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra, u yerda xazina yashirilgan ekan, nahotki bu narsa seni qiziqtirmasa?" Bu gap tog'aning og'zidan chiqishi bilan Mirza deganlariga darrov jon kirdi va aytilgan kerakli anjomlarni bir zumda yelkaga osiladigan choqqina qopga joylab, unga ergashdi"[3]

Voqealar rivoji davom etar ekan, qahramonlarimiz g'orga kirishadi ammo afsuslar bo'lsinki, g'orda Mirza xohlagandek xazina emas balki, qadimdan saqlangan kitoblar bor edi.

" Nima bu, tog'a?

- Nima bo'lardi, kitob... kitob jildi... - Tog'a tag'in cho'kkalab, toshlar orasidan yana bir nechta uvadasi chiqqan o'shanaqa jildni qo'lga olarkan, taassuf-la bosh chayqadi: - Esiz...

- Kitob... - azbaroyi hayajonlanganidan Mirzaning nafasi bo'g'ziga tiqilib, tizzalangan ko'yi toshlar orasiga chiroq nurini qaratdi. - Unda tillalar ham shu yerda bo'lishi kerak, tog'a!

- Qanaqa tilla? - Tog'aning ovozi hayrat zuhurlandi.

- Axir o'zingiz aytdingiz-ku, g'orda xazina yashirilgan deb.

- Ey-y, ha-a... - Tog'a, odatiga ko'ra, sokin, ammo hazin ohangda kuldi. - Endi, jiyani, xazinani kim qanday tushunadi, xazina deganda, men manavi kitoblarni nazarda tutgandim" [3]

Ha, Tirkash tog'a mana nimani xazina deb biladi. Bobolarimizdan qolgan yodgorliklar biz uchun xazina. Turli kitoblar, badiiy asarlar inson ma'naviyatini go'zal qilib, uning porloq kelajagi uchun asos bo'ladi.

Ha bir ijodkor asarlarida real voqelik bor. Hikoyadagi Mirza obrazi orqali jamiyatimizda shu kabi hayotga yengil qaraydigan insonlar mavjud ekanligiga ishora bor.



Tirkash tog'a misolida esa xalqqa sodiq va uning faovonligi yo'lida jonini berishga tayyor insonni korishimiz mumkin. Asarda mana shunday insonlardan biri bu Sibrga surgun bo'lgan Parda mulla bo'lsa biri shahid ketgan Yoqub cho'pondir.

"Yoqub cho'pon bosh ko'tardi. U qo'lidagi zalvorli zarang tayog'ini boshi uzra ko'tarib, bor ovozda hayqirdi.

- Uv-v! Yetar endi, a! Egriniyam, to'g'riniyam oborib tiqaverishdan, nima, haliyam charchamadinglarmi, enag'ardi bolalari! Silardi kim tuqqan o'zi, enami, yo to'ng'izmi?! Hech qurisa, hurmatini qilib, bu ulug' odamni otga mingazib olinglar, enag'arlar..."[3]

Badiiy asarda qahramonning ruhiyati tasvirisiz kitobxonning ishonch va e'tiborini qozonib bo'lmaydi. Qahramon xarakteristikasini va ruhiyatini ochib berishda monolog va diologlarning o'rni katta. Yuqoridagi perjonaj tilidan aytilgan nutqda ham bu yaqqol namoyon bo'ladi. " Uv-u! Yetar endi, a!" degan so'zning o'zida xalqning qiynaliganligi va jabr zulumlar davomiyligi korishimiz mumkin.

Tariximizdan ma'lumki, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi adiblarimiz nohaq ayblanib otib tashlanadi. Shu yo'sinda hikoya qahramonimiz Yoqub cho'pon ham haqiqatlarni aytganligi uchun shavqatsizlarcha otib tashalanadi.

Shu o'rinda, hikoyamiz so'ngida bosh qahramonimiz Mirza hadaha xarakteristikasida bolib o'tgan voqea-hodisalarga nisbatan ijobiy xususiyatlar namoyon bo'ladi. Ya'niki, u bu xildagi tortishuvlar va kelishmovchiliklarga yechim topish tariqasida Yakkasuv va Ayritomliklar ortasida do'stona sulh tuzishga qaror qiladi.

"har ikki tarafni bir dasturxon atrofiga yig'ib, kecha o'zi boxabar bo'lgan "tarix" haqida so'zlab beradi. Tog'a aytgandek, kerak bo'lsa, bo'zlab beradi. Axir, yaqin o'tmishda bu manzilda ne bir voqealar yuz bermagan, tarixchi tog'asi alohida urg'u berganidek, Parda mullaga o'xshagan o'qimishli odamlar Sibir qilinib, Yoqub cho'pon kabi mardu maydonlar shahid ketgan o'sha mudhish davrda bu buloq suvi "yurt" kalomini diliga jo aylagan ne bir azamat yigitlar qonini yuvib, chanqog'ini qondirmagan deysiz..." -deya Mirza hadaha o'z nutqini yakunlaydi. [3]

Xulosa qilib aytganda, hikoyada muallif nutqi hikoyachi vazifasini bajargan. Muallif nutqi asarning barcha komponentlarini o'zaro bog'lab, bir yaxlit kompozitsiyani yaratgan. Shuningdek, yozuchi hikoyada ruhiy tahlilning xilma-xil shakllari, ya'ni adabiy xarakteristika, portret, muallif bayoni, diolog, monolog va hissiy harakatlar ifodasida samarali foydalangan.

References:

1. M.Sadullayeva. Luqmon Bo'rixon hikoyalarida uslub va tagma'no qatlamlari. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomidagi Ilmiy, masofaviy, online konferensiya. 24-son 24-25 - betlar
2. H.D.Abdullayev, O.I .Duysenbayev. Hozirgi o'zbek romanlarda talqin muammosi.Toshkent.2020. 118-bet
3. "Sharq yulduzi" jurnali, 2016 yil, 12-son
4. Qo'shjonov M. Oybek mahorati // T.: 1965-yil, 5-6-betlar
5. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. T. 1983-yil 32- bet